O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Namangan sh. Istiqlol ko`chasi 57.

2024 - yil 6 - iyul 293-6-0-Q/24 Namangan viloyati hokimligi

Davlatobod tumani 20-son oilaviy poliklinikasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorlogini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-noyabrdagi PF–6110-son Farmoni ijrosi bo‘yicha Davlatobod tumanida aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy sanitariya yordami xizmatini yanada yaqinlashtirish hamda viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasining 2024-yil 28-maydagi 07-06/2854-son taklif xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasining “Davlatobod tuman 20-son oilaviy poliklinikasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 28-maydagi 07-06/2854-son taklifi ma’qullansin.

2. 2024-yilning 1-iyul kunidan Davlatobod tumani, “O‘rta Rovuston” MFY, Anorzor ko‘chasi 7-uyda joylashgan 8-son poliklinikasining Rovuston filiali bino va inshootlari o‘rnida yuridik maqomga ega bo‘lgan Davlatobod tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli 100 qatnovga mo‘ljallangan 20-son oilaviy poliklinikasi tashkil etilsin va faoliyatiga ruxsat berilsin.

3. Mazkur oilaviy poliklinikaning pochta manzili Davlatobod tumani, “O‘rta Rovuston” MFY, Anorzor ko‘chasi, 7-uy etib belgilansin va unga *(“Yuqori Rovuston” MFYning 7 801 nafar, “O‘rta Rovuston” MFYning 6 413 nafar, “Quyi Rovuston” MFYning 8 354 nafar va “Irvadon” MFYning 7 584 nafar aholisi)* jami 30 152 nafar aholi biriktirilsin.

4. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.Iminov):

yangi tashkil etilgan Davlatobod tumani 20-son oilaviy poliklinikasining nizomini ishlab chiqib, tasdiqlasin hamda Davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin;

ish jarayonlarini tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirilishini qat’iy nazoratga olsin;

Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) bilan birgalikda poliklinikaning Nizomiga asosan shtatlar jadvalini ko‘rib chiqib, ro‘yxatdan o‘tkazsin;

Davlatobod tumani 8-son oilaviy poliklinikasi Rovuston filiali ishchi-xodimlarini yangi tashkil etilgan 20-son oilaviy poliklinikasida to‘liq ish bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Davlatobod tumani hokimligi (A.Tadjimirzaev):

yangi tashkil etilgan 20-son oilaviy poliklinikasini mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun zarur bo‘ladigan mablag‘larni ajratsin.

6. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Aliev):

Davlatobod tumanida 20-son oilaviy poliklinika yangi tashkil etilganligi munosabati bilan gerbli muhr va tamg‘a tayyorlashga belgilangan tartibda ruxsat berilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarordan norozi bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda tegishli sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari G‘. Murodxo‘jayev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **Sh.Abdurazakov**